



## O'ZBEKİSTONDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT POTENTSIALI

*Sheripbaeva Umida*

Toshkent davlat agrar universiteti

*PhD Dexkanova Nilufar*

Toshkent davlat agrar universiteti

*Galimova Firuza*

Toshkent davlat agrar universiteti, i.f.n., dotsent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli, Respublikada meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishda erishilayotgan yutuqlar, meva-sabzavot mahsulotlari eksportining tarkibi, meva-sabzavot mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar tahlil natijalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, agrar islohotlar, eksport, import, klaster, oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat xavfsizligi, diversifikasiya, raqobatbardosh.

## ЭКСПОРТНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Шерипбаева Умida*

Ташкентского государственного аграрного университета

*PhD Лилия Декканова*

Ташкентского государственного аграрного университета,

*Галимова Фируза*

Ташкентского государственного аграрного университета к.э.н., доцент

**Аннотация.** В данной статье описаны реформы, реализуемые в аграрном секторе, кластерный метод сельскохозяйственного производства, достижения в выращивании и экспорте плодоовощной продукции в республике, структура экспорта плодоовощной продукции, результаты анализ стран-импортеров плодоовощной продукции.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, аграрные реформы, экспорт, импорт, кластер, продукты питания, продовольственная безопасность, диверсификация, конкурентоспособность.

## EXPORT POTENTIAL OF FRUIT AND VEGETABLE PRODUCTS IN UZBEKISTAN

*Sheripbaeva Umida*

Tashkent State Agrarian University

*PhD Dexkanova Nilufar*

Tashkent State Agrarian University

*Galimova Turquoise*

Tashkent State agrarian university

**Abstract.** This article describes the reforms being implemented in the agricultural sector, the cluster method of agricultural production, achievements in the cultivation and export of fruits and vegetables in the republic, the structure of exports of fruits and vegetables, the results of an analysis of countries importing fruits and vegetables.

**Keywords:** agriculture, agrarian reforms, export, import, cluster, food, food security, diversification, competitiveness.

### Kirish.

Agrar soha iqtisodiyotimizning to'rtdan bir qismini tashkil qiladigan muhim soha. Buning zamirida xalqimiz farovonligi, narx-navo barqarorligi, qancha ish o'rirlari yotibdi. Respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzlusiz faoliyat yuritishiga erishish, tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, eksportni rag'batlantirish, aholini samarali ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadlarga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda barqarorlikni ta'minlash Hukumatning eng asosiy vazifasiga aylangan.

Iqlim o'zgarishi va jahondagi murakkab vaziyat sababli oziq-ovqat xavfsizligi asosiy masalaga aylanmoqda. Jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi oshishi kutilmoqda. Bunday vaziyatda, avvalo, aholi talabini qondirish hamda eksport imkoniyatlaridan to'liq foydalanish talab etiladi.

### Adabiyotlar sharhi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini aholining talablari darajasida yetkazib berishda ushbu mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlash, ularni yetkazib berish va eksport salohiyatini oshirish muammolari bilan yetakchi xorijiy va mamlakatimiz olimlar tomonidan tizimli tadqiqotlar olib borilgan.

"Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash shartlari, usullari, xo'l hamda qayta ishlangan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlar marketingi" nomli qo'llanmada (Qo'llanma, 2016) mamlakat iqtisodiyotida eksportning ahamiyati va uni amalga oshirish bosqichlari, meva-sabzavot mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashning hozirgi holati, ularni saqlash va qayta ishlashni tash-kil etish, shuningdek saqlash va qayta ishlash usullari, texnika va texnologiyalar, ularning afzalliklari, milliy va halqaro "GLOBALGAP" standarti mohiyati va ahamiyati, uni joriy etish choralar keltirilgan.

Saidova, Rustamova, Tursunov (2016) "Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi" nomli o'quv qo'llanmasida agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, agrar siyosat va islohotlarning mohiyati, maqsadi va tamoyillari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlatning iqtisodiy roli, oziq-ovqat xavfsizligini baholashning nazariy-uslubiy asoslari, horijiy mamlakatlarda uni ta'minlash bo'yicha erishilgan yutuqlar, tajribalar, agrar va oziq-ovqat sohalari iqtisodiyotini tartibga solish darajasi va usullari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsiyalarning o'rni hamda mamlakatimizda oziq-ovqat ta'minoti va boshqa muhim masalalar yoritilgan.

Saidov, Rustamova (2018) "Yangi va qayta ishlangan mahsulotlarni sotish bozorlaridagi marketing izlanishlar" nomli o'quv qo'llanmada O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksportining ahamiyati, jahon meva-sabzavotlar bozorida O'zbekistonning tutgan o'rni, meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari, meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sir qiluvchi omillar, qishloq xo'jaligida logistik yondashuvlar, milliy va halqaro "GLOBALGAP" standarti mohiyati va ahamiyati, uni joriy etish choralar keltirilgan. Ushbu tadqiqotlarda meva-sabzavotlarni yetishtirish samaradorligini oshirish, ularning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan bo'lsada, hozirgi modernizatsiyalash sharoitida, oziq-ovqat mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash uslublari va texnologiyalari o'rganilmagan. Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash uslublarini takomillashtirish, aholini yil davomida oziq-ovqat masulotlari bilan bir tekisda ta'minlash imkoniyatini beradi. Shu sababli ushbu muammolarning tadqiqoti ma'lum bir dolzarblik kasb etadi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Shuningdek, maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarini statistik tahlil usullari (dinamik va qiyosiy tahlil usullari) dan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, ocharchilikdan qynalayotgan aholi soni 2 barobarga oshishi aytilmoqda. Respublikada ishlab chiqilgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida O'zbekistonda 2018-yil holatiga ko'ra aholi o'rtasida umumiyo to'yib ovqatlanmaydiganlarning ulushi 6,3 foizni tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu ulushni 2021-yilgacha 5, 2025 yilga kelib 3 foizgacha kamaytirish, 2030 yilga borib nol darajaga tushirish ustuvor vazifa etib belgilangan, Bularning hayotga tatbiq etilishi yurtimiz bozorlarini sifatli, arzon va xavfsiz oziq-ovqatlar bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish imkonini bermoqda. Shunday vaziyatda ichki talabni to'liq ta'minlash bilan birga, eksport salohiyatini oshirish uchun O'zbekiston ulkan imkoniyatlarga ega. Har qanday sharoitda ham odamlarning oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoji kamaymaydi. Respublikada meva-sabzavotchilik va chорvachilik tarmoqlarida mahsulot yetishtirish hajmini oshirish imkoniyatlari keng va bu vazifalarni bajarish talab etiladi.

Respublikamizda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tub agrar islohotlar asosida qishloq xo'jaligi ekinlari strukturasini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishga yo'naltirilgan strategiya amalga oshirildi. Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-son "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi (Qaror, 2020).

Respublikada meva-sabzavot, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan ushbu mahsulotlarni qayta ishlovchi, tayyorlovchi va realizatsiya qiluvchi korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlar uchun sharoitlar yaratish, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni diversifikatsiya qilish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish asosida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning strategiya va modellarini ishlab chiqish, meva-sabzavot, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy choralar - yangi vositalar va axborot tizimlarini yaratish, yuqori samara beruvchi yo'naliш va loyihalarni amalga oshirish, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga xususiy va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining ta'sirini tahsil qilish, prognozlash va bu borada tegishli takliflarni shakllantirish, zamonaviy savdo va logistika markazlarini tashkil etish, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini jahon bozorlarida ilgari surish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda import xajmini kamaytirish choralarini ko'rish vazifalari belgilandi.

#### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot mahsulotlari eksporti<sup>74</sup>

Birlik	2021-yil		2022-yil		O'sish 2022 yilda 2021 yilga nisbatan(%)	
	mln AQSh dollarli	ming tonna	mln AQSh dollarli	ming tonna		
Miqdor	957,3	1521,8	1134,3	1730,6	18,5	13,7

Hozirgi vaqtida 180 dan ortiq turdag'i qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinamoqda. Yana bir e'tiborli jihat, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, u rivojlanmoqda. Klasterlar qishloq xo'jaligida yer maydonlarining 62 foizini paxta-to'qimachilikda, 8 foizini chорvachilikda va 7,5 foizini meva-sabzavotchilikda qamrab olingen. Shular qatorida sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalilmayotgan bir qator imkoniyatlar mavjud.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra agrar sohaning meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishda bir qator yutuqlarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti tahlil natijalariga ko'ra 2021 yilda 957,3 mln AQSh dollarli, miqdorida 1521,8 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan, 2022 yilda 1134,3 mln AQSh dollarli miqdorida 1730,6 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan meva-sabzavot mahsulotlari eksportining qiymati 18,5 foiz, miqdori 13,7 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot mahsulotlari eksportining tarkibi bo'yicha tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

<sup>74</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

## 2-jadval

O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot mahsulotlari eksportining tarkibi<sup>75</sup>

Tovar guruhi	2021-yil		2022-yil		O'sish 2022-yilda 2021-yilga nisbatan(%)	
	mln AQSh dollarri	ming tonna	mln AQSh dollarri	ming tonna	mln AQSh dollarri	ming tonna
Sabzavotlar	404,1	801,5	478,3	883,7	13,4	10,2
Meva va rizavorlar	280,6	325,4	301,9	360	7,6	10,6
Uzum	208,5	270,6	280,1	318,9	34,4	17,8
Qovun tarvuz	22,7	82,9	37,2	136,6	63,9	64,8
Yer yong'oq	23,5	22	26,2	19,6	11,2	10,9
Qalampir	17,9	19,4	10,7	11,9	-40,3	-38,7

O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar tahlil natijalari 3-jadvalda ifodalangan. Meva-sabzavot mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar tarkibida eng katta ulush Rossiya (42,5 (%), 486,7 mln AQSh dollar) to'g'ri keladi.


## 3-jadval

O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar<sup>76</sup>

T/r	Davlatlar	Ulushi(%)	Mln AQSh dollarri	Ming tonna
1	Rossiya	42,5	486,7	541,9
2	Qozog'iston	18,9	216	641,2
3	Xitoy	9,1	104,6	127,2
4	Pokiston	8,8	101,2	65,3
5	Qirg'iziston	3,7	42,9	155,6
6	Afg'oniston	2,7	31,1	48,7
7	Turkiya	2,2	25,5	19
8	Belarus	1,7	19,9	24,3
9	Ozarbayjon	1,2	14,1	10
10	Eron	1,2	13,3	12,8

## Meva-sabzavot eksportidagi ulushi

- Узум(майиз кўшилган ҳолда)
- Мош
- Шафтоли
- Помидор
- Хурмо
- Пиёз
- Карам
- Қовун ва тарвуз
- бошқалар

1-rasm. Meva va sabzavotlarning eng ko'p eksport qilinadigan turi<sup>77</sup><sup>75</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari<sup>76</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari<sup>77</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra respublikada agrar soha eksport salohiyatining oshishida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz faoliyat yuritishiga erishishda, tashqi iqtisodiy faoliyatni q'llab-quvvatlash, eksportni rag'batlantirish, aholini samarali ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadlarga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning uzluksiz amalga oshirilayotgani o'z isbotini topmoqda.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan hayotiy islohotlar xalqimiz farovonligi, to'kinligi hamda oilalar daromadini oshishiga xizmat qilayotgan bo'lsa, bir tomonidan eksport salohiyatimizni yuksaltirishga ham munosib hissa qo'shamoqda.

### **Adabiyotlar / Литература / Literature:**

Saidov M.X., Rustamova I.B. (2018) *Yangi va qayta ishlangan mahsulotlarni sotish bozorlaridagi marketing izlanishlar. O'quv qo'llanma.* – T.: – 120 b.

Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. (2016). *Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi. O'quv qo'llanma.* – T.: "O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaxonasi nashriyoti, – 257 b.

Qaror (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-son "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.*

Qo'llanma (2016). "Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash shartlari, usullari, xo'l hamda qayta ishlangan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlar marketingi" bo'yicha qo'llanma. –T.: "Tafakkur" nashriyoti, – 80 b.